

BANK XIZMATI REGLAMENTI

1. Xizmat tavsifi (pasporti)

1.1. Xizmat nomi

Omonat

1.2. Xizmat natijasi

Mijozga omonat shartnomasi va omonat daftarchasi berilishi.

1.3. Xizmat ko'rsatuvchi organlar va blankalar olish joyi

“Asaka” bankning barcha filiallari tomonidan xizmat ko'rsatiladi

1.4. Qonuniy asoslar

- O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik Kodeksi;
- O'zbekiston Respublikasining “Markaziy banki to'g'risida”gi qonuni;
- O'zbekiston Respublikasining “Banklar va bank faoliyati to'g'risida”gi qonuni;
- O'zbekiston Respublikasi Adliya Vazirligida 2015 yil 26 avgustda 2711-son bilan ro'yxatga olingan hamda O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki Boshqaruvining 2015 yil 22 iyuldagi 19/11-sonli qaroriga asosan “O'zbekiston Respublikasi banklarida depozit operatsiyalarini amalga oshirish tartibi to'g'risidagi” Yo'riqnoma.

1.5. Xizmatdan foydalanuvchilar

Jismoniy shaxslar

1.6. So'rov yuborish muddati

Muddat o'rnatilmagan

1.7. Bajarish muddatlari

Mijozlar tomonidan kerakli bo'lgan xujjatlarni to'liq taqdim qilinishi bilan oq.

1.8. Tasdiqlash muddati

3 kun

2. Xizmatdan foydalanuvchilarni xabardor etish

2.1. Ma'lumotning xajmi va tarkibi

Xar bir foydalanuvchiga quyidagi zaruriy axborotlarni olish imkoniyati kafolatlanadi:

- Bankning Bosh ofisi hamda hududiy filiallarining manzili, ish vaqti, qabul qilish kunlari

- va tartibi;
- Omonat turlari, shartlari va muddatlari to'g'risida ma'lumot;
 - Xizmatdan foydalanish uchun kerakli bo'lgan hujjatlar ro'yxati;
 - Xizmatni ko'rsatish muddatlari;
 - Xizmat reglamentining mavjudligi hamda reglament bilan tanishish usuli.

2.2. Keng xabardor etish

Batafsil ma'lumotlarni mijozlar bank xodimlaridan hamda bankning www.asakabank.uz veb-saytidan olishlari mumkin

2.3. So'rov bo'yicha xabardor etish

Shaxsan

2.4. Xizmat ko'rsatish joyida xabardor etish

Bankning Bosh ofisi va hududiy filiallari manzillari bankning www.asakabank.uz saytida keltirilgan

2.5. Foydalaniladigan hujjat blankalari (shakllari)

O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligida 2015 yil 26 avgustda 2711-son bilan ro'yxatga olingan hamda O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki Boshqaruvining 2015 yil 22 iyuldagi 19/11-sonli qaroriga asosan "O'zbekiston Respublikasi banklarida depozit operatsiyalarini amalga oshirish tartibi to'g'risidagi" Yo'riqnomada berilgan ilovalardan hujjat blankalari sifatida foydalaniladi.

3. Xizmat ko'rsatish

3.1. Ish vaqti

Bank ish kunlari soat 9-00 dan 16-00 gacha

3.2. Kutish tartibi

Navbat bilan. O'rtacha kutish vaqti – kutmasdan.

4. Xizmat ko'rsatish jarayonlari

4.1. Kerakli hujjatlar

- O'zbekiston fuqarolari uchun O'zbekiston Respublikasi fuqarolik pasporti;
- 16 yoshga to'lmagan fuqarolarning tug'ilganlik to'g'risidagi guvohnomasi;
- Harbiy xizmatchilar uchun harbiy qismlar va harbiy muassasalar tomonidan berilgan shaxsni tasdiqlovchi hujjat yoki harbiy bilet(harbiy xizmatga majbur fuqarolar harbiy biletleri bundan mustasno);

- Xorijiy fuqarolar uchun – xorijiy fuqarolarning milliy pasporti (qonun hujjatlariga muvofiq xorijiy fuqarolar tegishli ichki ishlar organlari tomonidan ro'yhatga olinishi lozim) yoki O'zbekiston Respublikasida yashash guvohnomasi yoxud diplomatik pasporti yoki O'zbekiston Respublikasida akkreditasiya qilinganligini tasdiqlovchi akkreditasiya kartochkasi, fuqaroligi bo'lmagan shaxslarning O'zbekiston Respublikasida yashash guvohnomasi;

4.2. Xizmat narxi

Jismoniy shaxslardan omonat hisobvarag'i ochganligi uchun xizmat xaqi olinmaydi

4.3. Davlat xizmatini ko'rsatish bosqichlari

- Mijoz omonat hisobvaraqa ochish uchun istalgan filialga ariza orqali murojaat qiladi;
- bank xodimi mijozni omonat shartlari bilan tanishtiradi;
- mijoz hisobvaraqa ochish bo'yicha tegishli hujjatlarni taqdim etadi;
- barcha hujjatlar qonunchilik asosida rasmiylashtirilgandan so'ng, bank va mijoz o'rtasida shartnoma tuziladi.

4.4. Davlat xizmatini ko'rsatishning ichki idoraviy jarayonlari

- Taqdim etilgan shaxsni tasdiqlovchi hujjat orqali mijozni identifikatsiya qilish;
- Mijoz omonat hisobvarag'ini ochish uchun bergan arizasini ko'rib chiqish;
- Mijozni avtomatlashtirilgan tizimiga kiritish va hisob raqam ochish;
- Omonat daftarchani berish;
- Bank va mijoz o'rtasida tuzilgan shartnomani bir nusxasini taqdim qilish.

4.5. Rad etish asoslari

Quyidagi holatlarda mijozlarga xizmat ko'rsatish rad etiladi;

- hujjatlarning o'rnatilgan talablarga javob bermasligi (hujjatlarning to'liqmasligi, noto'g'ri to'ldirilganligi);
- taqdim etilgan hujjatlardagi ma'lumotlarning haqiqiy emasligi aniqlanganda;

5. Sifatini ta'minlash

5.1. Sifat ko'rsatkichlari

Xizmatlar amaldagi qonun hujjatlariga asosan ko'rsatiladi

5.2. Sifatsiz ko'rsatilgan xizmatga shikoyat bildirish

Bank filialiga murojaat qilgan mijozlar sifatsiz ko'rsatilgan bank xizmatlari uchun bankning Bosh ofisi yoki Markaziy bankning "Ishonch" telefonlariga hamda yozma va elektron shaklda qonunchilikda o'rnatilgan tartibda shikoyat qilishlari mumkin.